

TERMIN, ATAMA VA NEOLOGIZM HAQIDA MA'LUMOT

Saidova Xurshida Faxriddin qizi, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: x.f.saidova@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada “termin”, “atama”, “neologizm” soʻzlarining oʻxshash va farqli xususiyatlari haqida nazariy maʼlumotlar keltirildi. Maqolada tushunchalar orasidagi chalkashliklar, biri oʻrnida boshqa biri qoʻllanilishi eʼtiborga olindi va izohlandi. Izohi keltirilgan tushunchalarning har birining ifodalanishi, tilshunos olimlarning fikrlari, har bir tushunchaning oʻziga xos jihatlari, turlari haqida fikr keltirildi. Har bir tushunchaga oid bir necha misollar keltirildi. Ularning hosil boʻlish usullari birma- bir sanab, tegishli misollar bilan asoslandi. Maqola soʻngida tushunchalar haqida toʻliq xulosa berildi.

Kalit soʻz: Termin, atama, neologizm, yangi soʻz, oʻxshashlik, farqlari, kalkalash, qisqartma, tarjima qilish.

ИНФОРМАЦИЯ О ТЕРМИНОЛОГИИ, ТЕРМИН И НЕОЛОГИЗМАХ

Саидова Хуршида Фахриддиновна, аспирант Бухарского государственного университета

электронная почта: x.f.saidova@buxdu.uz

Аннотация: В данной статье приведены теоретические сведения о сходствах и различиях между терминами «термин», «название» и «неологизм». В статье рассмотрены и объяснены различия между понятиями, а также их взаимосвязь. Были приведены объяснения каждого из объясненных понятий, мнения лингвистов, особенности каждого понятия, их типы. Были приведены примеры каждого понятия. Способы их образования были описаны по порядку, с соответствующими примерами.

Ключевые слова: термин, название, неологизм, новое слово, сходство, различия, сокращение, сокращение, перевод.

INFORMATION ABOUT TERMINOLOGY, APPOINTMENT, AND NEOLOGISM

Saidova Khurshida Fakhriddin qizi, doctoral candidate Bukhara State University

e-mail: x.f.saidova@buxdu.uz

Annotation: This article provides theoretical information about the similarities and differences between the terms “terminology,” “terminology,” and “neologism.” The article examines the differences between these concepts, noting when one is used instead of another. The expression of each concept explained, the opinions of linguists, the characteristics of each concept, and their types are discussed. Examples related to each concept are provided. The methods of their formation are listed one by one and substantiated with relevant examples.

Key words: Term, designation, neologism, new word, similarity, differences, calque, abbreviation, translation.

KIRISH. Til inson tafakkurining mahsuli boʻlib, u doimo rivojlanib, oʻzgarib turadi. Har qanday tilning lugʻati turli vaqtlarda yangilanadi va boyitiladi. Bu jarayonda neologizmlar, yaʼni yangi soʻz va atamalar muhim oʻrin tutadi. Terminologiya – bu soha terminlarini tizimli ravishda oʻrganadigan fan. Bu yoʻnalishda atamalarning tuzilishi, kelib chiqishi, maʼnosi, vazifasi va oʻzaro bogʻliqligi oʻrganiladi. Mustaqillik davrida oʻzbek tilida fan va texnikaning jadal rivojlanishi bu sohaga oid yangi birlik va soʻzlarning paydo boʻlish jarayonini ham tezlashtirdi. Oʻzbek tilining leksikoni ham ilmiy-texnikaviy atamalar bilan ham boyidi.

Zamonaviy davrda global taraqqiyot natijasida hozirda u yoki bu tilda kirib kelayotgan yangi-yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi soʻzlarning faol qoʻllanilishi kuzatilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda tez-tez uchrab turuvchi va baʼzan biri oʻrnida ikkinchisining ishlatilish holatlari koʻp uchramoqda. Ushbu maqolamiz termin, atama va yangi soʻz tushunchalarining ifodalanishi, izohi va ularning oʻxshash va farqli tomonlari ochiqlandi.

Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek tili lug‘at boyligi yangi so‘z va so‘z birikmalari hisobiga ancha kengaydi va taraqqiy etdi. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

- *Istiqloldan so‘ng jamiyat hayotida siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va boshqa sohalaridagi o‘zgarishlar;*
- *ilm-fan va texnika taraqqiyotining yuksalishi;*
- *xorijiy tilda mulohaza qiluvchi yurtdoshlarimizning chet tilidagi so‘z va so‘z birikmalarini o‘z nutqlarida qo‘llashlari;*
- *ijtimoiy tarmoqlardagi o‘shlar.*⁸

Avvalo, “*termin*” tushunchasi haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tamiz. Termin lotincha so‘zdan olingan bo‘lib terminus-check, chegara, chegara belgisi)- fan, texnikava boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi. Terminlar bir ma‘noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo‘lmashligi kabi belgilari bilan ham umumistemo‘ldagi so‘zlardan farqlanadi. Termin – ma‘lum bir soha, fan yoki kasbga oid tushunchani aniq va ixcham ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Termin, uning izohi, ta‘rifi haqida tilshunoslarimiz quyidagicha fikrlar bayon etishgan. Taniqli tilshunos olim N. Mahmudov “*Termin — fan va texnika sohalarida qo‘llanadigan, bir tushunchani aniq ifodalovchi birlikdir. Terminlar birma‘noliligi va qat‘iyligi bilan umumxalq tilidagi so‘zlardan farq qiladi.*”, deya ta‘kidlaydi. O‘zbek tilshunosi A. Madvaliyev fikricha esa: “*Terminlar xalqaro tusga ega bo‘lib, ular ko‘pincha yunon va lotin tillaridan kelib chiqqan, ilmiy aloqa vositasida turlicha hamiyat kasb etadi.*” O‘zbek tilida terminlar mustaqillikdan keyin tez rivojlanib, yangi so‘zlar kirib keldi: marketing, menedjment, kriptovalyuta, internet, onlayn.

Yangi terminlarning paydo bo‘lishi, ilm-fan taraqqiyoti va sohalar rivoji hamda munosabati xususida tilshunos L.I.Bojno shunday fikrlarni keltiradi: “Texnika taraqqiyoti ta‘sirida terminologiya o‘zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika jarayoni qonuniyatlari, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi”⁹ Terminlarda aniqlik asosiy belgi sanaladi. Shuningdek, terminlar xalqaro xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ayniqsa, ilm-fan, tibbiyot, texnika sohasida mavjud terminlar xalqaro qo‘llanilish doirasida bo‘ladi (“*marketing*”, “*biotexnologiya*”). Terminlar xalqona tildan yiroq, ko‘pincha ilm sohasida faol qo‘llaniladi. “*Termin cheklanganligi, ya‘ni bir ma‘noni ifodalaganligi tufayli kontekstda hamma vaqt o‘z ma‘nosini saqlaydi. U emotsionallik va ekspressivlik xususiyatlarga ega emas.*”¹⁰

“*Atama*” terminning o‘zbek tilida muqobili sifatida ishlatiladi. Tilshunosligimizda “*atama*” ko‘pincha “*termin*”ning sinonimi sifatida qo‘llanadi, ya‘ni soha yoki ilmiy tushunchaning nomi. O‘zbek tilshunos olimi O. Usmonov ta‘kidlashicha: “*Atama bilan termin o‘rtasida to‘liq sinonimlik bor, biroq ‘atama’ so‘zi o‘zbek tilining ichki imkoniyatlariga tayanishini ko‘rsatadi.*” “*Atama va termin sinonim bo‘lsa-da, atama so‘zining qo‘llanishi milliylikni kuchaytiradi.*” Atama tushunchasi haqida tilshunos N. Mahmudov shunday e‘tirof etgan: “*Atama — ilmiy tushunchani ifodalovchi, ma‘nosi qat‘iy belgilangan birlik. Uni xalq tilidagi so‘zlardan farqlash lozim. Chunki xalq tili so‘zlari ko‘p ma‘noli bo‘lsa, atama bir tushunchaga bog‘lanadi.*”¹¹ Tilshunos Shomahmudova Sh “*Atama — milliy tilning ichki imkoniyatlariga tayangan holda yaratilgan yoki moslashtirilgan termin. Shu jihatdan u milliy terminologiya tizimini shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi.*”¹², deya ta‘kidlaydi.

Atamalarni hosil qilish usullari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tamiz.

- a) So‘z yasash orqali (*banankor, blogerlik*);
- b) Qisqartma orqali (*IT- ijtimoiy tarmoq*);

⁸ Saidova X.F. Neologizmlarning mavzuviy guruhlari haqida. Finland, Helsinki international scientific online conference "SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY"

⁹ Божно Л.И. Научно-техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка // филологические науки. – Москва, 1971. – №5. – С.103.

¹⁰ Ashirova M.F “Atamalar haqida umumiy ma‘lumot” <https://cyberleninka.ru/article/n/atamalar-haqida-umumiy-ma-lumot/viewer>

¹¹ Mahmudov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent, 2005

¹² Shomahmudova Sh. Zamonaviy o‘zbek tilida semantik jarayonlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019

- c) Tarjima qilish orqali(*software – dasturiy ta'minot*);
- d) O'zlashtirish orqali(*marketing, selfie*).

Atamalar deyarli har bir sohada mavjud. Masalan: Texnika sohasida *quyosh batareyasi, dasturiy ta'minot*. Huquq,davlat boshqaruvi sohasida: *fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, sud tizimi*. Ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy sohada: *mustaqillik, jamiyat ustuvorligi, davlat ramzi, xalqaro aloqalar*.

METOD VA METODOLOGIYA. Termin va atamaning farqli tomonlarini ko'rib chiqsak. Ba'zi manbalarda "atama" milliy til negizida yaratilgan yoki moslashtirilgan termin sifatida talqin qilinadi. "Termin" xalqaro va umumilmiyroq bo'lsa, "atama" milliy til va madaniyatga yaqinroq. Tilshunoslar S.Usmonov, M.Mirhamedov, S.Hasanov tadqiqicha: "... Atama so'zining ma'nosi termin so'zining ma'nosiga nisbatan keng bo'lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir tor sohada qo'llanivchi rasmiylashgan so'zdir. Shu ma'noda "termin" tushunchasi "atama" tushunchasining ichiga kiruvchi ilmiy-lug'aviy birlikdir."¹³

Neologizm tilga yangi kirib kelgan yoki yaqinda yasalgan so'zdir. Neologizmlar termin ham bo'lishi mumkin oddiy so'z ham bo'lishi mumkin. Masalan: *bloger, selfi, vayn* – nutqda faol qo'llanuvchi, umumxalq tiliga kirgan yangi so'zlar. *Nanotexnologiya, klaster, yashil energiya*- ma'lum soha terminlari sifatida tilga kirgan yangi so'zlar. Neologizmlar yangi tushuncha, narsa va hodisalarni nomlaydi, nutqda keng tarqalmagan bo'ladi. Bular zamon o'tgan sayin asta-sekin umumxalq tiliga yoki ilm-fan tiliga singib ketadi. Terminlar ham yangi so'z bo'lishi mumkin, ammo har bir yangi so'z termin emas. Shuningdek, tilshunos olim N. Mahmudov: "*So'z ma'nosining kontekstga moslashishi – bu neologik jarayonning semantik ko'lami kengayganidan dalolat*" va o'zbek tilshunosi Sh. Shomahmudova esa: "Neologizmlar – yangi davrning mahsuli. "Platforma", "resurs", "onlayn", "kontent" kabi birliklar mustaqillikdan keyingi yangi voqeliklarni nomlashda paydo bo'ldi." bayon etishgan. Neologizmlarni til taraqqiyotining ko'zgusi deya e'tirof etish mumkin. Neologik so'zlar yashovchaligi, mavjudligi jihatdan ikki xil bo'ladi. Umumxalq lug'atiga kiruvchi, yashovchi so'zlar(*internet, telefon*) va vaqtinchalik qoluvchi,unutiluvchi so'zlar(*popit*).

TADQIQOT NATIJALARI. Neologizmlar keng tushuncha sanaladi. Neologizmlarga yangi yaratilgan so'zlar: "*moliyaviy savodxonlik*", "*raqamlashtirish*", "*biznes loyiha*" kabilari; o'zlashma yangi so'zlar: "*internet*", "*bloger*", "*selfie*"; mavjud so'zning yangi ma'no olishi, ma'no kengaygan, ya'ni semantik neologizmlar: "*sahifa*" – *kitob sahifasi va yangi ma'nosi internet sahifasi, instagram sahifasi* kabilarni kiritamiz.

Ushbu tushunchalarning farqli tomonlari: *termin* – ilmiy va aniq tushunchalarning nomi(algoritm, fotosintez, marketing), *atama* – terminning o'zbek tilidagi sinonimi(*quyosh batareyasi,pul o'tkazmasi*), *neologizm* – zamon jihatdan tilga yaqinda kirgan yoki yangi ma'no kasb etgan birlik(*onlayn, sahifa*).

Kelib jihatiga ko'ra terminlar ko'pincha xalqaro tilli bo'ladi. Atama esa o'zbek tili negizida yaratilgan va tilimizga moslashtirilgan bo'ladi. Yangi so'z- ma'lum kashfiyot, yangilikka bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Sh. Shomahmudova, N. Mahmudov, O. Mamatov – neologizm, semantika va terminshunoslik bo'yicha bir necha ilmiy ishlari amalga oshirgan.

MUHOKAMA. Tadqiqot davomida "*termin*" tushunchasi fan-texnika, kasb yoki sohaga oid nomlarni ifodalaydi. Ma'lum soha doirasida qat'iy qo'llanadi. "*Atama*" tushunchasi termin bilan bir xil tushuncha, lekin tilimiz tabiatiga moslashtirilgan nom va milliy ahamiyatga ega bo'ladi. Yangi so'z, ya'ni "*neologizmlar*" tilga yaqinda kirgan va yangi ma'no kasb etgan birlik sanaladi. Hozirgi kunga kelib terminlar bo'yicha bir necha tadqiqotlar amalga oshirilmogda va ilmiy o'rganishlar jadal taraqqiy etmogda. Tilshunosligimizda yangi so'zlar bo'yicha bir necha tadqiqot ishlari amalga oshirilmogda. Yaqin yillarda tadqiqotchi M.Nasirovaning ilmiy tadqiqotida neologizmlarning hosil bo'lish usullari va ularning

¹³ Yuristning nutq madaniyati

leksikografik talqini tahlil etilgan.¹⁴

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til jamiyat boyligidir. Insonlarning nutqiy faoliyati davomida va jadallik bilan rivojlanib borayotgan ommaviy axborot vositalari yordamida tilga yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi neologizmlar ham kirib keladi. Bunday hodisa hech bir tilni chetlab o'tmaydi va bu ijobiy holat hisoblanadi. Chunki til hamisha o'sib borishi, o'zining so'zlashuvchilarini eng so'nggi yangilik va axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Ona tilimizda ham mustaqillikdan buyon ko'plab yangi-yangi so'z va birikmalar kirib keldi va hosil bo'ldi. Ushbu tushunchalarning umumiy izohi va farqi haqida quyidagicha umumiy xulosaga kelindi:

Termin – aniq ilmiy tushuncha nomi. Terminlar xalqaro xarakterga ega bo'ladi. Kelib chiqishi bo'yicha lotin, yunon, ingliz va rus manbali bo'ladi.

Atama – o'zbek tilida milliy ko'rinishdagi termin tilimiz tabiatiga moslashtirilgan, milliy til negizida yaratilgan bo'ladi.

Yangi so'z – yangilik tufayli tilga kirgan birlik (vaqt o'tgan sayin termin yoki atamaga aylanishi mumkin). Yangi so'z – yangi ixtiro, yangi jarayon, ma'lum yangilikka bog'liq ravishda paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991.
2. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикография масалалари. “Ўз. Миллий энциклопедияси”. – Т., 2017.
3. Najimov A. Mustaqillik yillarida qoraqalpoq tili ijtimoiy-seyosiy leksikasining rivojlanish. Filol. fan. fal. dok. dis. (Phd) avtoref. 2019.
4. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2010.
5. Saidova X. F. The formal characteristics of socio-political-economic simple lexemes of the independence period (in the noun category).
6. Saidova Kh.F. On the Development of Socio-Political Vocabulary of The Uzbek Language in the Following Years
7. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: “Ўқитувчи”, 1965.
8. Тўрахўжаева А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти. Филол. фан. номз...дис. автореф. –Андижон, 2012.
9. Хо'jayev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarning izohli lug'ati. – Т.: “Sard”, 2001.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. – Тошкент, 2006-2008 у
11. <https://www.ziyounet.uz>

¹⁴ Nasirova M. Leksikografiya tendensiyalarini neologizmlar lug'atini yaratilishidagi mavqeyi. [Vol. 4 No. 5 \(2024\): MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY](#)